



**SOG'LIQ BILIMLARI UNIVERSITETI**

**2023-2024 O'QUV YILI**

**TURKIYANING SOG'LIQ BILIMLARI UNIVERSITETI VA  
BUXORO DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI HAMKORLIGIDA TASHKIL  
ETILGAN IBN SINO NOMIDAGI TIBBIYOT FAKULTETI HAMDA  
MALAKALI TIBBIY XIZMATLAR OLIV MAKTABI**

**TALABALARNI SARALASH VA QABUL QILISH IMTIHONLARI  
BO'YICHA QO'LLANMA**

**Buxoro davlat tibbiyot instituti  
tarkibidagi Ibni Sino nomidagi Turkiya  
tibbiyot fakulteti va malakali tibbiy  
xizmatlar oliy maktabi uchun talabalarni  
saralash va qabul qilish imtihonlari  
hamda soha yo‘nalishi bo‘yicha og’zaki  
suhbat sanalari**

<b>Ariza topshirish muddati</b>	<b>15 iyun - 16 iyul 2023 yil</b>
<b>Arizalarni ko‘rib chiqish sanasi</b>	<b>17 iyul - 24 iyul 2023 yil</b>
<b>Talabalarni yozma (test) imtihoni sanasi</b>	<b>25 iyul 2023 yil</b>
<b>Talabalarni saralash imtihonlari natijalari va fakulteti soha yo‘nalishi bo‘yicha og’zaki suhbat qatnashadigan nomzodlar e’loni</b>	<b>26 iyul 2023 yil</b>
<b>Talabalarni qabul qilish imtihon natijalari bo‘yicha appelyatsiya qabul qilish sanalari</b>	<b>27 - 29 iyul 2023 yil</b>
<b>Ibn Sino Tibbiyot fakulteti suhbat shakldagi imtihon sanalari</b>	<b>31 iyul – 02 avgust 2023 yil</b>
<b>Ibni Sino tibbiyot fakulteti soha yo‘nalishi bo‘yicha og’zaki suhbat natijalarini e’lon qilish</b>	<b>03 avgust 2023 yil</b>
<b>Buxoro Ibn Sino malakali tibbiy xizmatlar oliy maktabi soha yo‘nalishi bo‘yicha og’zaki suhbat sanalari</b>	<b>03 - 05 avgust 2023 yil</b>
<b>Buxoro Ibn Sino malakali tibbiy xizmatlar oliy maktabi soha yo‘nalishi bo‘yicha og’zaki suhbat natijalarini e’lon qilish</b>	<b>06 avgust 2023 yil</b>
<b>Suhbat imtihon natijalariga appelyatsiya qabul qilish sanalari</b>	<b>06 - 08 avgust 2023 yil</b>
<b>O’qishga qabul qilinganlar uchun shartnomal tulov sanalari</b>	<b>09-12-avgust 2023-yil</b>
<b>Til maktabi</b>	<b>14-avgustdan 14-oktyabrgacha</b>
<b>Ta’limning boshlanishi</b>	<b>2023 yil 16 oktyabr</b>

**Telefon:**

**Tel-1 : +998 97 309 00 51 (Shohida Solihova)**

**Tel-2 : +998 90 637 67 28 (Gulmira Atoyeva )**

**Tel-3 : +998 90 514 25 92(Nargiza Abdullayeva)**

**Veb-sayt: <http://www.sbu.edu.tr>**

**Manzil: Navoiy shox kochasi 1 uy. (Buxoro davlat tibbiyat institutining eski binosi)**

**Index: 200118**

## I. UMUMIY MA'LUMOT, ASOSIY TAMOYIL VA QOIDALAR

1. Turkiya Respublikasi Prezidentning 24.06.2019 yildagi 1157-sun qarori bilan Sog'liq bilimlari universiteti tarkibida O'zbekiston Respublikasi Buxoro shahrida tashkil etilgan Ibn Sino tibbiyot fakultetining 6 (olti) yillik Tibbiyot dasturini o'z ichiga oladi.

2. Turkiya Respublikasi Prezidentning 17.04.2019 yildagi 968, 3 (uch) sonli qarori bilan Sog'liq bilimlari universiteti tarkibida O'zbekiston Respublikasi Buxoro shahrida tashkil etilgan Ibn Sino nomidagi malakali tibbiy xizmatlar oliy maktabi (Buxoro Ibn Sino MTXOM) 3 (uch) yillik o'quv dastur asosida Ilk va shoshilinch yordam, Anesteziya va Fizioterapiya yo'nalishlarida mutaxassislar tayyorlaydi.

3. Ushbu qo'llanma 2023-2024 o'quv yili uchun Sog'liq bilimlari universiteti, Ibn Sino tibbiyot fakulteti va Ibn Sino MTXOM ga o'qishga kirishni xohlovchi talabgorlarga mo'ljallangan.

4. 2023-2024 o'quv yili uchun O'zbekiston Respublikasining Buxoro shahrida tashkil etilgan Ibn Sino nomidagi tibbiyot fakultetiga qabul o'rinnari soni jami 80 (sakson) ta bo'lib, 60 nafari O'zbekiston fuqarolari uchun, 20 nafari Turkiy tillar mamlakatlari fuqarolari uchun ajratilgan. Sog'liq bilimlari universitetining Talabalarni saralash va qabul qilish komissiyasi qaroriga muvofiq Turkiy tillar mamlakatlari fuqarolariga ajratilgan o'rinnar bo'sh qolganda O'zbekiston fuqarolari qabul qilinishi nazarga tutilgan.

5. 2023-2024 o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining Buxoro shahrida tashkil etilgan Ibn Sino MTXOM dagi "Anesteziya", "Ilk va shoshilinch yordam" va "Fizioterapiya" yo'nalishlarining har biriga 40 nafardan jami 120 nafar O'zbekistonlik abiturenlari uchun o'rinnar ajratilgan.

6. Sog'liq bilimlari universiteti Ibn Sino nomidagi tibbiyot fakulteti va malakali tibbiy xizmatlar oliy maktabiga qabul uchun kirish imtihonlari 2 bosqichda yozma (test) imtihon va soha yo'nalishi bo'yicha og'zaki suhbat shaklida o'tkaziladi. Arizalar 2023-yil 15-iyundan 16-iyuliga qadar qabul qilinadi (16 iyun kuni ham). Manzil: **Buxoro Davlat Tibbiyot Institut / Morfologiya binosi / Xalqaro Turkiya fakulteti / O'zbekiston, Buxoro shahri, A. Navoi ko'chasi, 1 uy. 200118**

7. Sog'liq bilimlari universiteti Ibn Sino nomidagi tibbiyot fakulteti va malakali tibbiy xizmatlar oliy maktabiga 2023-2024 yilda kuzgi semestrida Sog'liq bilimlari universitetining Talabalarni saralash va qabul qilish komissiyasining yozma (test) imtihoni va soha yo'nalishi bo'yicha suhbat natijalari xulosasi asosida amalga oshiriladi.

8. Sog'liq bilimlari universitetiga kirish imtihonlari 2023 yilning 25 iyul kuni soat 11.00 da O'zbekistonning Buxoro shahrida abiturentning shaxsan ishtirokida oflaysn formatda o'tkaziladi.

9. O'zbekiston fuqarolari uchun Buxoro davlat tibbiyot instituti negizida tashkil etilgan Ibn Sino nomidagi tibbiyot fakulteti va malakali tibbiy xizmatlar oliy maktabiga kirish imtihonlari yozma va og'zaki suhbat shaklida o'tkaziladi. Tibbiyot fakulteti uchun soha yo'nalishi bo'yicha og'zaki suhbat yozma imtihonlar tugagach 2023 yilning 31 iyul-2 avgust sanalarida (soat 10:00-17:00 gacha), malakali tibbiy xizmatlar oliy maktabi uchun 03-05 avgust kunlari (soat 10:00-17:00 gacha) bo'lib o'tadi. Zarurat bo'lganda (fors-major holatlarda) suhbat onlayn shaklda o'tkazilishi mumkin.

10. 2023-2024 o'quv yilida Sog'liq bilimlari universiteti Ibn Sino tibbiyot fakulteti uchun 80 ta asosiy va 40 (qirq) ta zahira kvota ajratilgan. Sog'liq bilimlari universiteti malakali tibbiy xizmatlar oliy maktabining Anesteziya, Ilk va shoshilinch yordam, Fizioterapiya yo'nalishlarining har biri uchun 40 tadan jami 120 ta asosiy kvota ajratilgan. Har bir yo'nalish uchun 40 tadan zahira o'rinnar ajratilgan bo'lib, bu zaxira o'rinnaridan asosiy kvotani to'ldirish maqsadida foydalaniladi.

11. Sog'liq bilimlari universiteti Ibn Sino nomidagi tibbiyot fakulteti va malakali tibbiy xizmatlar oliy maktabiga kirish imtihonlariga qatnashgan talabgorlarning yozma va og'zaki suhbat natijalari faqat 2023-2024 o'quv yili uchun amal qiladi va keyingi o'quv yillarda ahamiyatga ega emas.

12. Universitetimiz va talabgor abiturentlar orasidagi muloqotda turk, o'zbek, rus va ingлиз tillaridan foydalaniladi.

**13.** 2023-2024 o‘quv yili uchun Sog‘liq bilimlari universiteti Ibn Sino nomidagi tibbiyot fakulteti va malakali tibbiy xizmatlar oliy maktabi hujjat topshirish uchun ariza yozgan talabgorlar Buxoro Davlat Tibbiyot Instituti Buxoro hisob raqamiga 10,00 AQSH dollari yoki shu miqdorga teng o‘zbek so‘mi baravarida tuloq qilishlari kerak.

**14.** Imtihon topshiradigan talabgorlar imtihon kunlari o‘zlari bilan pasport yoki boshqa shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarini olib kelishlari shart.

**15.** Sog‘liq bilimlari universiteti talabalarini saralash va qabul qilish imtihoniga hujjat topshirgan, lekin yozma imtihonda qatnashmagan nomzodlar soha yo‘nalishi bo‘yicha og‘zaki suhbat imtihoniga kiritilmaydi.

**16.** Sog‘liq bilimlari universiteti Ibn Sino nomidagi tibbiyot fakulteti va malakali tibbiy xizmatlar oliy maktabiga kirish uchun o‘tkazilgan imtihon natijalari faqat shu ta’lim muassasasi uchun amal qiladi.

## **II. HUJJAT TOPSHIRISH JARAYONI**

**1.** 2023-2024 o‘quv yilida Sog‘liq bilimlari universiteti Ibn Sino nomidagi tibbiyot fakulteti va malakali tibbiy xizmatlar oliy maktabiga kirish uchun talabagorlar yo‘riqnomada ko‘rsatilgan manzilda, belgilangan sanalarda hujjatlarini to‘liq topshirishlari lozim. **Buxoro Davlat Tibbiyot Instituti / Morfologiya binosi / Xalqaro fakultet./ A. Navoi ko‘chasi N1 uy Buxoro shahri, 200118 / O‘zbekiston**

**2.** Hujjatlar to‘liq bo‘lмаган talabgorlarning arizalari ko‘rib chiqilmaydi.

Ariza topshirish jarayonida talabgordan talab qilinadigan hujjatlar:

- a) Fuqarolik guvohnomasi yoki pasport
- b) Maktab, litsey yoki kollej diplomi
- c) fotosurat

d) Arizani qabul qilish uchun amalga oshirilgan to‘lov kvitansiya.

**3.** Sog‘liq bilimlari universiteti Ibn Sino nomidagi tibbiyot fakultetiga arizalar O‘zbekiston va boshqa turkiy tillarda so‘zlovchi respublikalar fuqarolari tomonidan topshirilish mumkin.

**4.** Ibn Sino nomidagi malakali tibbiy xizmatlar oliy maktabiga faqat O‘zbekiston fuqaroslari hujjat topshirishlari mumkin.

**5.** Agar O‘zbekiston fuqaroligi bo‘lgan shaxslar keyinchalik Turkiya mamlakat fuqaroligini olgan bo‘lsa, yoki ikkita fuqarolikka ega bo‘lsa Ibn Sino nomidagi tibbiyot fakultetiga va Ibn Sino nomidagi malakali tibbiy xizmatlar oliy maktabiga kirish uqchun hujjat topshira olmaydi.

**6.** Turkiyadagi istalgan oliy ta’lim muassasasiga ro‘yxatdan o‘tgan O‘zbekistonlik fuqarolar Ibn Sino nomidagi tibbiyot fakulteti va malakali tibbiy xizmatlar oliy maktabiga kirish uchun hujjat topshira olmaydi. Agar talabgorlar arizasini saralash jarayonida bunday holatlar aniqlansa ariza haqiqiy emas deb qabul qilinadi. Agar bunday holat saralash va qabuldan keyin aniqlansa bekor qilinadi.

**7.** Ariza va to‘ldirilgan ma’lumotnomada keltirilganan ma’lumotlar haqiqiyligiga bevosita abiturentning o‘zları javobgar hisoblanadi. Anketaning shaxsini tasdiqlovchi ma’lumotlar maydonlari nomzodning pasportidagi shaxsni tasdiqlovchi ma’lumotlarni o‘zgartirmagan holda va qisqartmalsiz kiritilishi kerak.

**8.** Anketada so‘ralgan elektron pochta va telefon aloqa ma’lumotlari talabgorga tegishli bo‘lishi va har bir nomzod faqat bitta elektron pochtadan foydalanishi kerak. Ushbu elektron pochta orqali boshqa talabgorlar nomidan yozishmalar/operatsiyalar amalga oshirilmasligi kerak.

**9.** Maktab, litsey yoki kollej diplomi turk, rus, o‘zbek yoki ingliz tillari yozilmagan bo‘lsa, ushbu hujjatning turkchaga tarjima qilib, notarial tasdiqlangan nusxasi taqdim etiladi.

**10.** Nomzodlarning suhbatga bo‘lgan arizasining muvofiqligi Sog‘liq bilimlari universitetining talabalarini tanlash va joylashtirish imtihon va suhbat komissiyasi tomonidan baholanadi.

### **III. KIRISH IMTIHONLARI UCHUN ARIZA TO'LDIRISH VA TO'LOV QILISH JARAYONLARI**

**1.** Sog‘liq bilimlari universitetiga kirishga talabgorlar universitet tizimiga Buxoro Davlat Tibbiyot Instituti (Buxoro Davlat Tibbiyot Instituti) hisob raqamiga 10.00 AQSh dollari (o‘n AQSH dollari) yoki shu miqdorga tenglashtirilgan o‘zbek so‘mi tushganligi to‘g‘risida kvitansiyani onlayn yuklashi kerak.

**2.** Imtihon to‘lovini to‘lagan bo‘lsada, yozma va soha yo‘nalishi bo‘yicha og‘zaki suhbatga ishtirok etmagan talabgorlar tomonidan to‘langan imtihon **tulov summasi qaytarilmaydi**

**3.** Ariza topshirishda ma’lumotlar noto‘g‘ri kiritilganligi sababli haqiqiy deb topilmagan ariza egalariga **tulov summasi qaytarilmaydi**.

**4.** Agar abiturent saralash imtihonlaridan o‘tib o‘qishga qabul qilinsa va keyinchalik ma’lum sabablar asosida o‘qishni rad etsa **tulov summasi qaytarilmaydi**.

**5.** Saralash jarayonida institutning tegishli yo‘nalishiga o‘qishga qabul qilingan abiturentlar quyidagi tamoyillarga muvofiq shartnomaga to‘lovlarini amalga oshiradilar

**6.** 2023-2024 o‘quv yilida kirish imtihonlaridan muvaffaqiyatli o‘tib o‘qishga qabul qilingan talabalar quyidagi tartiblar asosida stipendiya olishlari mumkin:

• **Sog‘liq bilimlari universitetiga Ibn Sino tibbiyot fakultetiga o‘qishga qabul qilinganlar uchun shartnomaga to‘lov miqdori:**

**A)** Yozma (test) va soha yo‘nalishi bo‘yicha og‘zaki imtihon natijalariga ko‘ra eng yuqori ball olgan 10%, yani dastlabki 8 (sakkiz) nafar talabaga 100% stipendiya qo’llaniladi va ular o‘qish to‘lovini to‘lamaydilar.

**B)** Yozma (test) va soha yo‘nalishi bo‘yicha og‘zaki imtihon natijalariga ko‘ra yuqori ball olgan ikkinchi 10%, ya’ni 9-16 o‘rinlardagi 8 (sakkiz) nafar talaba 50% stipendiya qo’llaniladi va ular o‘qish to‘lovining 50% ni to‘laydilar.

**C)** Yozma (test) va soha yo‘nalishi bo‘yicha og‘zaki imtihon natijalariga ko‘ra 17-80 o‘rindagi qolgan talabalar o‘qish to‘lovini to‘liq to‘laydilar.

Davlat granti asosida o‘qish imkoniyati 6 (olti) yil davomida amal qiladi. Shu muddatda o‘qishni tugata olmagan talabalar bu imkoniyatni yo‘qotadilar va to‘liq kontrakt shartnomaga asosida tulov amalga oshiriladi.

#### **•Sog‘liq bilimlari universiteti, malakali tibbiy xizmatlar oliy maktabi o‘qishga kirish huquqiga ega bo‘lgan uchun shartnomaga to‘lov miqdori:**

**A)** Yozma (test) va soha yo‘nalishi bo‘yicha og‘zaki imtihon natijalariga ko‘ra, eng yuqori ball olgan 10%, ya’ni dastlabki 4 ta nomzodga (har bir yo‘nalish bo‘yicha) 100% stipendiya qo’llaniladi va o‘qish uchun to‘lov to‘lanmaydi.

**B)** Yozma (test) va soha yo‘nalishi bo‘yicha og‘zaki imtihon natijasida yuqori ballarni olgan ikkinchi 10%, 5-8 o‘rindagi 4 nafar talabalar uchun 50% stipendiya qo’llaniladi va ular ta’lim to‘lovining 50% ni to‘laydilar.

**C)** Yozma (test) va soha yo‘nalishi bo‘yicha og‘zaki imtihon natijalariga ko‘ra 9-40 o‘rinda bo‘lgan talabalar o‘qish to‘lovini to‘liq to‘laydilar.

Davlat granti asosida o‘qish imkoniyati Malakali tibbiy xizmatlar oliy maktabi yo‘nalishi uchun uch yil (6 semestr) uchun amal qiladi. Bu muddat ichida (6 semestr) o‘qishni tugata olmagan talabalarning stipendiya olish imkoniyati to‘xtatiladi va ular o‘qishni to‘lovnini to‘liq to‘lash yo‘li bilan davom ettiradilar.

**Sog'liq Bilimlari Universiteti Akademik Yo'nalishlarining O'zbekistondagi O'qish to'lovleri**

<b>Bo'lim</b>	<b>%100 stipendiyasi</b>	<b>%50 stipendiyasi (AQSh dollarri)</b>	<b>Sharhnomalar tōlovi (AQSh dollarri)</b>
<b>Davolash yo'nalishi</b>	-	2000	4000
<b>Malakali tibbiy xizmatlar oliy məktəbi</b>	-	1000	2000

Ibn Sino tibbiyot fakulteti o'qish to'lovi:

Davolash ishi yo'nalishi uchun yillik o'qish to'lovi:

4 000 (to'rt ming AQSh dollarri) yoki shu miqdorga tenglashtirilgan O'zbekiston so'mi hisobi evaziga olinadi.

Buxoro Ibn Sino Tibbiyot fakulteti malakali tibbiy xizmatlar oliy məktəbi o'qish to'lovi:  
Ilk va shoshilinch yordam, Anesteziya va Fizioterapiya dasturi uchun yillik o'qish to'lovi:

2 000 \$ (Ikki ming AQSh dollarri) yoki shu miqdorga tenglashtirilgan O'zbekiston so'mi hisobi evaziga olinadi.

Bank nomi: **Gaznachiligi Markaziy Bank BBXKKM Toshkent Shahri.**

**a) IBAN:**

UZS Hisob: 400110860064017094100054001

USD Hisob: 400910840064017094100054001

EIRO Hisob: 400910978064017094100054001

**b) SWIFT kodi: CBUZ22**

**c) Qabul qiluvchining nomi: Buxoro davlat tibbiyot instituti.**

**d) To'lovchining ismi va familiyasi.**

**e) To'lov vaqtida to'lov turi va to'lovchining to'liq ismi, familiya va otasining ismi kiritilishi lozim.**

**f) To'lov haqidagi kvitansiya o'qish boshlangunga qadar Buxoro davlat tibbiyot instituti marketing bo'limga topshirilishi va qayd qilinishi kerak.**

**g) o'qish to'lovini O'zbekiston yoki Buxoro viloyatidagi barcha bank filiallaridan to'lashlari mumkin.**

**h) Sog'liq bilimlari universitetiga kirish imtihonlaridan muvaffaqiyatlari o'tgan va o'qishga qabul qilingan talabalar har semestr boshlanishidan oldin o'qish uchun to'lovlarini 50% amalgalashirishlari zarur. Aks holda ular joriy semestrda o'qishni davom ettirish huquqiga ega bo'lmaydilar.**

**i) O'qishga qabul qilingan talabalar o'quv yili boshidagi til məktəbi davrida o'quv tulovining 50% ni to'lashlari shart. Bu summa hech qanday holatda qaytarilmaydi.**

**IV. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VA XORIJ DAN TURIB O'QISH UCHUN  
TO'LOV QILISH JARAYONIDA E'TIBORLI BO'LISH ZARUR BO'LGAN  
HOLATLAR.**

1. O'qish uchun to'langan pul tashkilot hisob raqamiga o'tkazilib depozitga kiritilgandan so'ng to'lov amgalashirish deb hisoblanadi.
2. O'qish to'lovi uchun maxsus chek, konvertdagisi pul, pochta cheki va shunga o'xshash boshqa qog'ozlar yuborilishi qat'iyantiq taqiqlanadi.
3. Bank tomonidan olinadigan tranzaksiya to'lovlar o'quv to'loviga kiritilmaydi.
4. O'qish to'lovi to'langunga qadar talabgor qabul qilingan yo'nalish bo'yicha ro'yxatga

olinmaydi.

6. O‘qish to‘lovin to‘lagan abituriyentlar bank bo‘limidan chiqishdan oldin o‘zlariga berilgan bank chekini sinchiklab o‘rganib chiqishlari, ma’lumotlarida xatolik bo‘lsa bank xodimiga qayta murojaat qilishlari va xatoliklarni tuzatishlari kerak.

## **V. SOG’LIQ BILIMLARI UNIVERSITETIGA O‘QISHGA KIRISH UCHUN MUROJAAT QILGAN TALABGORLAR ARIZALARINI DASTLABKI SARALASH.**

1. Topshirilgan arizalarning qo‘yilgan talablarga muvofiqligi Sog‘liq bilimlari universiteti tomonidan tayinlangan talabalarini saralash va qabul imtihonlariga yo‘naltirish komissiyasi tomonidan baholanadi.

2. Arizalarni baholash va talabgorni yo‘nalishlarga mos qabul qilish, kvotalarining to‘lishi yoki tuldirilmasligi butunlay Sog‘liq Bilimlari universiteti vakolatida bo‘ladi.

3. Murojaatda talab qilinadigan barcha hujjatlar tegishli organlar tomonidan tasdiqlanishi kerak.

4. Dastlabki baholash natijalariga ko‘ra yozma imtihon topshirish huquqiga ega bo‘lgan nomzodlar universitetimiz veb-saytida e’lon qilinadi.

## **VI. SOG’LIQ BILIMLARI UNIVERSITETI, IBN SINO TIBBIYOT FAKULTETI VA BUXORO IBN SINO MALAKALI TIBBIY XIZMATLAR OLIY MAKTABIGA QABUL QILISH IMTIHONLARI**

1. Nomzodlarning murojaat arizalari Sog‘liq bilimlari universiteti talabalarini saralash va yo‘nalishlar bo‘yicha taqsimlash komissiyasi tomonidan ko‘rib chiqiladi. Ko‘rib chiqish jarayonida talab qilingan hujjatlar to‘liqligi yoki undagi kamchiliklar aniqlanadi. Arizalari qabul qilingan abiturentlar imtihon kuni o‘zları bilan pasport va yoki shaxsni tasdiqlovchi hujjat olib kelishlari talab qilinadi.

2. Sog‘liq bilimlari universitetiga talabalarni qabul qilish kirish imtohinining birinchi bosqichi (test) 2023-yil 25-iyul kuni soat 11:00 da O‘zbekiston Respublikasining Buxoro shahrida bo‘lib o‘tadi.

3. Sog‘liq bilimlari universitetiga talabalarni qabul qilish kirish imtihoni jami 90 ta test savoldan iborat bo‘lib, uning davomiyligi 150 (bir yuz ellik) daqiqa.

4. Sog‘liq bilimlari universitetiga talabalarni qabul qilish kirish imtihoni test savollarini matematika, kimyo va biologiya fanlari bo‘yicha tuzilgan bo‘lib, har bir yo‘nalish bo‘yicha 30 ta imtihon savollaridan iborat.

5. Imtihon savollarida beshta (5) variant mavjud bo‘lib, ulardan faqat bittasi to‘g‘ri javob sanaladi. Imtihon savollarining to‘g‘ri variantlarini savollar kitobchasida va sizga beriladigan javoblar varaqasiga belgilashingiz kerak.

6. Javoblar varaqasida yo‘l qo‘yilishi mumkin bo‘lgan xatolarni kamaytirish maqsadida imtihon topshiruvchilar imtihon boshlanishidan oldin nazoratchilar tomonidan javoblar varaqasini to‘ldirish tartibi bilan tanishtiriladilar.

## **VII. SOG’LIQ BILIMLARI UNIVERSITETI TIB FAKULTETI VA IBN SINO MALAKALI TIBBIY XIZMATLAR OLIY MAKTABI TALABALARINI SARALASHNING OG‘ZAKI SUHBAT IMTIHONI**

1. Soha yo‘nalishi bo‘yicha og‘zaki suhbat imtihoni yozma (tet) imtihondan keyin Sog‘liq bilimlari universitetining Talabalarni saralash va qabul qilish komissiyasi tomonidan o‘tkaziladi. Yozma (test) imtihonda yuqori ball olgan, belgilangan kvotaning 3 (uch) barobaridan boshlab suhbatga chaqiriladi. Suhbatga chaqiriladigan nomzodlar universitet veb-saytida e’lon qilinadi. Nomzodlar suhbatga kelganda o‘zları bilan pasport va yoki shaxsini tasdiqlovchi

hujjatlarini olib kelishlari shart.

2. Sog'liq bilimlari universitetiga qabul imtihoninig soha yo'nalishi bo'yicha og'zaki suhbat Buxoro Davlat Tibbiyot Instituti Turkiya tibbiyot fakultetida (Morfologiya binosi) da bo'lib o'tadi. Ibn Sino tibbiyot fakulteti (davolash yo'nalishi)ga nomzodlar uchun suhbat 2023-yil 31-iyul – 02-avgust kunlari, malakali tibbiy xizmat oliv matabiga talabgor nomzodlar uchun 2023-yil 03-05-avgust kunlari mahalliy vaqt bilan soat 10:00 dan 17:00 gacha bo'lib o'tadi.

### **VIII. SOG'LIQ BILIMLARI UNIVERSITETI IBN SINO TIBBIYOT FAKULTETI VA MALAKALI TIBBIY XIZMATLAR OLIY MAKTABI TALABALARINI SARALASH NATIJALARINI BAHOLASH.**

1. Sog'liq bilimlari universitetining Talabalarni saralash va qabul qilish imtihoni natijalari yakuniy ballari yozma (test) imtihon natijasi (60%), attestat balli (20%) va og'zaki suhbat balli (20%) jamlanmasidan iborat bo'ladi. Agar nomzodlar orasida ballar miqdori teng bo'lgan holatlar kuzatilsa, tug'ilgan yili tanlov sifatida inobatga olinadi va yoshi kichik bo'lganlar tanlanadi.

2. Nomzodlarning suhbat imtihon natijalari Universitetimiz veb-saytida e'lon qilinadi.

3. Yakuniy ro'yxatga olish Sog'liqni bilimlari universiteti, Ibn Sino tibbiyot fakulteti va malakali tibbiy xizmatlar oliv matabida e'lon qilingan ro'yxatdagi muvaffaqiyat reytingiga ko'ra amalga oshiriladi.

### **IX. SOG'LIQ BILIMLARI UNIVERSITETI IBN SINO TIBBIYOT FAKULTETI VA MALAKALI TIBBIY XIZMATLAR OLIY MAKTABI DASTUR KVOTASI**

2023-2024 o'quv yilining kuz va bahorgi semestrlari uchun universitetimizning Ibn Sino tibbiyot fakultetiga 80 (sakson) nafar, malakali tibbiy xizmatlar oliv matabiga 120 (bir yuz yigirma) nafar talaba qabul qilinadi va ularning ta'llimi 2023-2024 o'quv yilidan boshlanadi.

### **X. NOMZODLARNI YONALISHLAR BO'YICHA TAQSIMLASH TARTIBI**

1. Sogliq bilimlari universiteti Ibn Sino tibbiyot fakulteti va malakali tibbiy xizmatlar oliv matabiga o'qishga qabul qilinadigan talabalarni aniqlashda saralash jarayonida to'plangan yozma (test) (60%), maktab, litsey yoki kollej diplomining balli (20%) va soha yo'nalishi bo'yicha og'zaki suhbat balli (20%) yig'indisidan iborat umumiy ball asosida amalga oshiriladi.

2. Arizalarni baholash va nomzodlarni qabul qilish butunlay Sog'liq bilimlari universiteti vakolatida. Qo'llanilishi kerak bo'lgan saralash chegara ballari Sog'liq bilimlari universiteti tomonidan tayinlangan komissiya tomonidan belgilanadi va universitet kvotani to'ldirish yoki to'ldirmaslik holati bo'yicha qaror qabul qilishi mumkin. Ariza shartlarini bajarish holati qabul qilish zarurligini kafolatlamaydi.

3. Nomzod faqatgina bir yo'nalish bo'yicha o'qishga qabul qilinadi.

4. Talabalarning o'qishga qabul qilinganligi natijalari Talabalarni saralash va qabul qilish bo'yicha yo'riqnomada ko'rsatilgan sanalarda universitetimiz veb-saytida e'lon qilinadi.

### **XI. TALABALIKKA QABUL QILISH UCHUN ZARUR HUJJATLAR**

1. Maktab, litsey yoki kollej diplomi asl nusxasi.

2. Universitetimiz tomonidan o'tkazilgan Talabalarni saralash va qabul qilish imtihonlari natijalari haqidagi hujjat nusxasi.

3. Oltita (6) 4,5 x 6 sm o'lchamdagisi pasport fotosurati (oxirgi olti oy ichida, old tomondan, nomzodni osongina aniqlashi mumkin bo'lgan tarzda olingan bo'lishi kerak).

4. O'quv to'lovi to'langanligi to'g'risidagi bank kvitansiyasining asl nusxasi.

5. Ariza berish, joylashtirish va ro'yxatdan o'tkazish jarayonida yolg'on ma'lumot bergen, soxtalashtirilgan, qalbaki, to'liq bo'lmanan va noto'g'ri hujjatlarni taqdim etgan shaxslarning arizalari rad etiladi. Agar ushbu nomzodlarni ro'yxatga olish amalga oshirilgan bo'lsa, ular o'qiyotgan semestrdan qat'iy nazar, bekor qilinadi. Yuqoridagi noqonuniy holatlar aniqlangan shaxslarga nisbatan zaruriy qonuniy choralar ko'rildi. O'qish to'lovlar qaytarilmaydi.

**XII. SOG'LIQ BILIMLARI UNIVERSITETI 2023-2024 O'QUV YILI UCHUN  
IBN SINO TIBBIYOT FAKULTETIGA TALABALARНИ SARALASH VA  
TAQSIMLASH BALLARINI ASOSLASH.**

nomi	foiz ulushi	nomi	Foiz ulushi	nomi	Foiz ulushi	Umumiy ball
Sog'liq bilimlari universiteti saralash va taqsimlassh imtihoni (test)	60%	Maktab, litsey va kollej diplom balli	20%	Soha yo'nalishi bo'yicha og'zaki suhbat	20%	100

**XIII. SOG'LIQ BILIMLARI UNIVERSITETI 2023-2024 O'QUV YILI UCHUN IBN SINO MALAKALI TIBBIY XIZMATLAR OLIY MAKTABIGA TALABALARНИ SARALASH VA TAQSIMLASH BALLARINI ASOSLASH**

nomi	foiz ulushi	nomi	Foiz ulushi	nomi	Foiz ulushi	Umumiy ball
Sog'liq bilimlari universiteti saralash va taqsimlassh imtihoni (test)	60%	Maktab, litsey va kollej diplom balli	20%	Soha yo'nalishi bo'yicha og'zaki suhbat	20%	100